
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA 2023-YILDA AHOLINI RO'YXATGA OLISHGA TAYYORGARLIK KO'RISH VA UNI O'TKAZISH CHORA-TADBIRLARI TO'G'RISIDA

Aholini ro'yxatga olish – bu mamlakat aholisining muayyan vaqtdagi “fotosurati”ni olish imkonini beruvchi umumdavlat miqyosidagi keng ko'lamli tadbir bo'lib, aholi to'g'risidagi ishonchli axborot manbai hisoblanadi. Aholini ro'yxatga olish – davriy oraliqda mamlakat hududidagi va uning kichik aholi punktlaridagi aholining rasmiy hisobga olish bo'lib, barcha aholining ijtimoiy va demografik tavsiflari to'g'risidagi ma'lumotlarni yig'ish hisoblanadi. Bu tadbir kishilar to'g'risidagi ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash va umumlashtirish jarayonlarini, shuningdek demografik, iqtisodiy va ijtimoiy ma'lumotlarni baholash, e'lon qilish va tahlil qilishni o'z ichiga oladi.

Aholini ro'yxatga olish tadbiri iqtisodiy jihatdan bizga nima beradi.

Birinchidan, aholi jon boshiga makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni (yalpi ichki mahsulot, aholi daromadlari, sanoat mahsuloti hajmi, iste'mol mahsulotlari hajmi, aholiga ko'rsatiladigan xizmatlar hajmi, qishloq xo'jaligi mahsulotlari) hisoblashda foydalaniladi.

Ikkinchidan, respublika va hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, aholi bandligi, ayollar va bolalar salomatligini yaxshilash va oilalarga yordam ko'rsatish bo'yicha dasturlarni manzilli ishlab chiqishda axborot manbai sifatida xizmat qiladi.

2022-03-28 15:30:51